



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-avgust

421-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF–104-son Farmoni ijrosi haqida”gi 374-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-iyuldagi PF–104-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14avgustdagi 374-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-avgustdagi 374-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF–104-son Farmoni bilan:

Savdo-sanoat palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasining:

2024 – 2026-yillarda “O‘zmilliybank” AJ ishtirokida Buxoro va Namangan viloyatlarida bittadan hamda Toshkent shahrida ikkita zargarlik markazlarini tashkil etish;

zargarlik markazlarida tadbirkorlik subyektlari uchun zarur infratuzilmani (ishlab chiqarish va savdo maydonchalari, “shou-rum”lar, qimmatbaho metallar zaxiralari, ularning asillik darajasini aniqlash bo‘yicha laboratoriyalar) yaratish;

2025-yil yakuniga qadar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarning (keyingi o‘rinlarda – zargarlik buyumlari) yillik ishlab chiqarish hajmlarini 1 milliard aqsh dollariga va eksport ko‘rsatkichini – 100 million AQSH dollariga yetkazish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

belgilab qo‘yilishicha, ushbu farmonga muvofiq tashkil etiladigan zargarlik markazlarida faoliyat yuritayotgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga qimmatbaho metallarni kechiktirib to‘lash sharti bilan sotishda:

90 kun ichida amalga oshirilgan to‘lovlar qismiga – foiz hisoblanmasligi;

91-kundan boshlab 180-kungacha amalga oshirilgan to‘lovlar qismiga – yillik 3 foiz miqdorida foiz hisoblanishi;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarning qimmatbaho metallarga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida shunday tartib joriy etilganki, unga muvofiq:

a) zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar “Olmaliq KMK” AJ va “Navoiy KMK” AJ tomonidan uzluksiz ravishda zarur miqdordagi qimmatbaho metallar bilan ta‘minlanishi;

bunda davlat buyurtmasida nazarda tutilgan qimmatbaho metallarning yillik hajmlari muddatidan oldin sotilganda, “Olmaliq KMK” AJ va “Navoiy KMK” AJ tomonidan keyinchalik birja savdolari va

to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali realizatsiya qilish uchun qo'shimcha qimmatbaho metallar hajmlari ajratilishi;

b) "Olmaliq KMK" AJ va "Navoiy KMK" AJ tomonidan "O'zmilliybank" AJning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy filiallari omborxonalarida qimmatbaho metallar zaxiralari shakllantirilishi;

bunda zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga birja savdolari va to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida sotib olingan qimmatbaho metallarni "Olmaliq KMK" AJ va "Navoiy KMK" AJga bormasdan bevosita "O'zmilliybank" AJning omborxonalaridan olish huquqi berilishi;

v) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab:

"O'zbekzargarsanoati" uyushmasiga a'zo bo'lgan affinaj korxonalariga "Olmaliq KMK" AJ va "Navoiy KMK" AJdan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida 100 foiz oldindan to'lov shartlarida qimmatbaho metallarni sotib olish va keyinchalik ularni qulay bo'lgan shakl va miqdorlarga keltirgan holda zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga sotish huquqi berilishi;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga o'zlari yasagan yarim tayyor zargarlik buyumlarini boshqa zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga realizatsiya qilishga ruxsat etilishi;

g) 2024-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-oktabrga qadar:

zargarlik sanoatida ishlatiladigan ligatura mahsulotlarini import qilishda maxsus turdagi tovarlar importi uchun litsenziya olish talabi bekor qilinishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan va zargarlik sanoatida ishlatiladigan ligatura mahsulotlari bojxona bojidan ozod etilishi;

d) qimmatbaho metallarni chegirmalarni qo'llagan holda sotishda:

zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi lozim bo'lgan ish o'rinlariga qo'yilgan talablar yengillashtirilishi hamda chegirma olish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish muddatlari qisqartirilishi;

qimmatbaho metallarni birja savdolari bilan birgalikda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida ham chegirmalarni qo'llagan holda sotib olishga ruxsat etilishi;

belgilanishicha, zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va milliy brendlarni jahon bozorlarida ilgari surish maqsadida:

a) Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 100 million AQSH dollari ekvivalentidagi maqsadli resurslari tijorat banklariga ularning buyurtmalariga asosan 5 yil muddatga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 3 foiz bandga past foiz stavkada depozitga joylashtirilishi, bunda:

tijorat banklari tomonidan depozitga joylashtirilgan mablag'lar hisobidan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga investitsiya loyihalarini amalga oshirish, asbob-uskuna va ehtiyot qismlarini xarid qilish hamda aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadlariga 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha bo'lgan muddatga Markaziy bankning asosiy stavkasida (shundan 3 foiz bank marjasi) milliy valyutada kreditlar ajratilishi;

depozitga joylashtirilgan mablag'larga nisbatan Markaziy bankda shakllantiriladigan majburiy rezerv talablari qo'llanilmasligi;

b) 2024-yil 1-avgustdan boshlab xorijiy ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etish uchun olib chiqiladigan tayyor zargarlik buyumlarini "vaqtincha olib chiqish" bojxona rejimiga joylashtirishda bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida undirilishi, bunda tadbirkorlik subyektlariga:

ushbu zargarlik buyumlarini ko'rgazma va yarmarkalarda sotish hamda ularni invoys asosida "eksport" bojxona rejimiga joylashtirish;

zargarlik buyumlarini ko'rgazma va yarmarkalarda sotishdan tushadigan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi banklaridagi o'z hisob raqamlariga, shu jumladan bank o'tkazmalari orqali yoki naqd pul shaklida kiritish huquqi berilishi;

v) 2024-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-oktabrga qadar:

belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha import qilinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan hamda zargarlik sohasida foydalaniladigan asbob-uskunalar, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlari bojxona bojidan ozod etilishi;

“Uzbek Jewellery Fair” xalqaro ko‘rgazma savdosi doirasida O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan respublika hududiga vaqtincha olib kiriladigan hamda keyinchalik qaytarib olib chiqiladigan zargarlik buyumlariga nisbatan bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishda bojxona yig‘imlari undirilmasligi;

belgilab qo‘yilishicha, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasida samarali nazorat tizimini joriy etish hamda ularning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish maqsadida:

a) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi va uning hududiy bo‘limlariga (keyingi o‘rinlarda – Asillik inspeksiyasi) quyidagilarni amalga oshirishga ruxsat etilishi:

zargarlik buyumlari bilan chakana savdo qilish, ularni tamg‘alash va asillik darajasini aniqlash qoidalariga rioya etilishini tekshirish bilan bog‘liq nazorat tadbirlarini Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda o‘tkazish;

nazorat tadbirlarini o‘tkazish jarayonlariga “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi mutaxassislarini jalb qilish;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki ularni sotish faoliyatini boshlash (tugatish) to‘g‘risidagi xabarnomalarni qabul qilish, mazkur sohada litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillariga rioya qilmasdan faoliyat yuritayotgan shaxslarni aniqlash va ularga zarur hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha ko‘maklashishga oid funksiyalarini outsorsing asosida savdo-sanoat palatasiga berish;

b) 2024-yil 1-noyabrdan boshlab:

chet elda ishlab chiqarilgan zargarlik buyumlarini, basharti ular bo‘yicha bojxona to‘lovlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasa, sotuvga qo‘yish va chakana savdoda realizatsiya qilish man etilishi, bunda ushbu tartib buxgalteriya hisobi qonunchiligiga muvofiq 2024-yil 1-sentabrga qadar rasmiylashtirilgan (kirim qilingan) zargarlik buyumlariga nisbatan tatbiq etilmasligi;

qimmatbaho metallarning hamda qimmatbaho metallar bilan qoplangan metallarning chiqindilari va parchalari litsenziya asosida eksport qilinadigan maxsus turdagi tovarlar ro‘yxatiga kiritilishi;

Asillik inspeksiyasining xulosasi bo‘lmagan yarim tayyor zargarlik buyumlarini O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish man etilishi;

jismoniy shaxslarga og‘irligi 200 grammgacha bo‘lgan kumushdan hamda 65 grammgacha bo‘lgan oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yasalgan tayyor zargarlik buyumlarini yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasini to‘ldirmasdan, ushbu miqdorlardan ortiq bo‘lganlarini yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishga ruxsat berilishi;

2027-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tayyor zargarlik buyumlariga nisbatan import bojxona bojlari 20 foizdan 10 foizgacha kamaytirilishi;

Savdo-sanoat palatasining “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi faoliyatini takomillashtirish va uning asosiy vazifalarini 1-ilovaga muvofiq qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasiga zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarni hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni oltin izlovchilar usulida qazib oluvchi tadbirkorlik subyektlarini ham a‘zolikka qabul qilishga ruxsat etilishi;

b) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab 2027-yil 1-sentabrga qadar:

“Hunarmand” uyushmasi a‘zolari uchun belgilangan soliq imtiyozlari “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasiga a‘zo bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham tatbiq etilishi;

“O‘zbekzargarsanoati” uyushmasiga a‘zo bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarishda foydalaniladigan ko‘chmas mulk obyektlari hamda yer uchastkalari mol-mulk solig‘i va yer solig‘idan ozod etilishi;

v) 2024-yil 1-avgustdan boshlab oltindan yasalgan zargarlik buyumlarini chakana savdoda sotganlik uchun yig‘im summasi Savdo-sanoat palatasining Tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltirilishi;

g) 2026-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilar zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki ularni sotish faoliyatini yuritishning qo‘shimcha shartlari sifatida kiritilishi:

Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va tegishli sertifikatni olgan kamida bir nafar mutaxassisning mavjudligi;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki ularni sotish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjudligi va ushbu holat savdo-sanoat palatasi tomonidan tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu Farmonda belgilangan vazifalarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash uchun 2025-yilgi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda Savdo-sanoat palatasining Tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 100 milliard so'm mablag'lar ajratilishi;

belgilanishicha, ushbu bandga asosan davlat budjetidan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar 2-ilovada ko'rsatilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi;

zargarlik sanoatini rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rinlarda – Respublika kengashi) 3-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

zargarlik sohasini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni muntazam ravishda muhokama qilib borish hamda bu boradagi mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

zargarlik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ular yetarli miqdordagi xom ashyo bilan ta'minlanishi uchun zarur sharoit yaratish;

zargarlik markazlarini tashkil etish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun davlat mulki obyektlarining o'z vaqtida qulay shartlarda ajratilishini ta'minlash;

qimmatbaho metallarni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

zargarlik sanoatida innovatsion ishlanmalar joriy etilishini hamda mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining xalqaro standartlarga muvofiq doimiy yangilanishini ta'minlash;

quyidagilar:

2024–2027-yillarda zargarlik sanoatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq;

2024–2027-yillarda zargarlik sanoatini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi (S.Egamberdiyev) bilan birgalikda:

2025-yil yakuniga qadar "O'zmilliybank" AJ tajribasidan kelib chiqib, tumanda ham zargarlik markazlarini tashkil etsin;

2025-yil 1-yanvarga qadar zargarlik markazlarini tashkil etish uchun davlat ko'chmas mulk obyektlarini yaxlit mulk sifatida yoki lotlar (qismlar va xonalar)ga bo'lgan holda tadbirkorlik subyektlari va tijorat banklariga uzoq muddatli ijaraga yoki mulk huquqi asosida, qiymatini bo'lib-bo'lib to'lash shartlarida realizatsiya qilish choralari ko'rsin.

4. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari G'.Murodxujayev zargarlik sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash maqsadida Namangan shahar va tumanlarda zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, ularni realizatsiya qilish, gemmologiya, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarga ishlov berish hamda ularni sayqallash yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etishi. Bunda:

a) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Gaffarov) Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvarga qadar qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga qulay bo'lgan ta'lim muassasalaridan tekin foydalanish huquqi asosida zarur bino va xonalar ajratilishini ta'minlasin;

b) Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Akbarov) hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Gaffarov) bilan birgalikda 2025/2026-o'quv yili boshlanishiga qadar:

Turkiya, Xitoy, Hindiston davlatlaridan o'quv kurslariga yuqori malakali xorijiy o'qituvchi va mutaxassislarni jalb qilish choralari ko'rsin;

o'quv kurslarini lozim darajada tashkil etish hamda ta'lim muassasalarini o'quv- metodik majmualar, laboratoriya uskunalari va xom ashyo bilan ta'minlash uchun Savdo-sanoat palatasining Tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlashi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi (S.Egamberdiyev) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-104-son Farmonining 4-ilovasi 15-bandiga asosan aholi va tadbirkorlik subyektlarining zargarlik tarmog'ida yaratilgan imkoniyatlar haqidagi bilimni oshirsin. Bunda:

har oyda kamida bittadan biznes vakillari ishtirokida zargarlik sohasida yaratilgan imkoniyatlarni, qabul qilingan hujjatlarning maqsad va mazmunini tushuntirish bo'yicha davra suhbatlari, munozaralar o'tkazish;

doimiy mahalliy zargarlik buyumlarining yangi kolleksiyalarini televideniya, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn savdo platformalari va yirik savdo komplekslarida reklama qilish va namoyish etish choralarini ko'rsin.

6.Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov